



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

further research. For example, how do the cognitive aspects of people prone to Internet addiction develop? To what extent is this problem developed in older people? Therefore, we think it is important to continue research on this topic.

List of used literature

1. Андреева И.Н. Понятие и структура эмоционального интеллекта // Социально-психологические проблемы ментальности: 6-я Междунар. научно-практ. конф. 26-27 ноября 2004 г. Смоленск: В 2 ч. Ч. 1. Смоленск: Изд-во СГПУ, 2004. С. 22-26.
2. D. T. Shek and L. Yu, "Internet addiction phenomenon in early adolescents in Hong Kong", The Scientific World Journal, vol. 2012, Article ID 104304, 9 pages, 2012.
3. S. C. Milford, L. Vernon, J. J. Scott, and N. F. Johnson, "An initial investigation into parental perceptions surrounding the impact of mobile media use on child behavior and executive functioning", Human Behavior and Emerging Technologies, vol. 2022, pp. 1-11, 2022.
4. P. Salovey and J. D. Mayer, "Emotional intelligence," Imagination, Cognition and Personality, vol. 9, no. 3, pp. 185-211.
5. Otamuratov R. U. Internet ijtimoiy tarmoqlari foydalanuvchilari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan shaxsiy xususiyatlarning aloqasi //MedUnion. – 2023. – T. 2. – №. 1. – С. 177-182.
6. Отамуратов Р., Отамуратова С., Розиккулова Д. Уникальность концепции эмоционального интеллекта в семейных отношениях //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 423-428.

TAZIYQ VA ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN XOTIN-QIZLARGA IJTIMOIY XIZMAT KO'RSATISHNING HUQUQIY VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Sattorova Mahliyo Burxanovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
o'qituvchisi

**Xudoyorova Sevinch Zarif qizi, Xo'jaqulov Sardor Shuhrat o'g'li,
Mamadiyrov Sayfiddin Olim o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarning ijtimoiy-psixologik holati, ularga ko'rsatiladigan kompleks yordam (huquqiy, tibbiy, psixologik) mexanizmlari va rehabilitatsiya markazlarining o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tazyiq, zo'ravonlik, ijtimoiy xizmat, rehabilitatsiya, himoya orderi, psixologik yordam, huquqiy hujjatlar.

Zo'ravonlik – bu faqat shaxsiy muammo emas, bu jamiyat muammosi. Har bir ayol o'zini xavfsiz his qilishi, hurmat va e'tiborga loyiq. Psixologik yordam, huquqiy

himoya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali biz ayollarga yangi hayot boshlash imkonini beramiz. Sukutni buzish — kuch belgisi.

Saida Mirziyoyeva: Bugungi kunda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan orin olmoqda desak mubolag'a bolmaydi bunga sabab hozirgi kunda zo'ravonlik nafaqat jismoniy, balki ruhiy, iqtisodiy va jinsiy shakllarda ham namoyon bo'lib, ayollarning jamiyatdagi o'rniga, jismoniy va ruhiy sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazib kelmoqda. Bunday achinarli holatlarni oldini olish maqsadida; Zo'ravonlikka uchragan ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari (vaqtinchalik boshpanalar) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida tashkil etilib undagi asosiy huquqiy hujjatlar:

1. PQ-5116-sonli Prezident Qarori (19.05.2021-y.): "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror, ushbu qaror asosida avvalgi markazlar tugatilib, mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzurida Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi hamda uning hududiy bo'limlari tashkil etildi. [1]

2. PQ-175-sonli Prezident Qarori (10.05.2024-y.): "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror. Markazlar faoliyatini "oilalar – mahalla – tuman va hudud" tamoyili asosida yangi bosqichga olib chiqish, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali himoya orderi talab etilmagan holda yordam ko'rsatish tizimi joriy etildi.[2]

3. VM-625-sonli Vazirlar Mahkamasi Qarori (06.10.2021-y.): "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". [1, 2, 3, 4, 5]- bandler asosida muhim ma'lumot sifatida hozirgi vaqtda ushbu markazlar faoliyati O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzurida tashkil etilgan bo'lib, xotin-qizlarga ijtimoiy, psixologik, huquqiy yordam va vaqtinchalik boshpana (shelter) xizmatlarini ko'rsatadi. [3]

Himoya orderi – huquqiy himoya kafolati. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan ayollarga davlat tomonidan beriladigan asosiy huquqiy hujjat — bu himoya orderidir. 2024-yildagi yangi tartibga ko'ra, endilikda himoya orderi nafaqat ichki ishlar organlari, balki ijtimoiy xodimlar tomonidan aniqlangan holatlar asosida ham berilmoqda. Ushbu hujjat zo'ravon shaxsga ayol bilan muloqot qilishni, u bilan bir xonada bo'lishni taqiqlaydi hamda ayolning xavfsizligini 30 kungacha (va zarurat tug'ilganda uzaytirilgan holda) ta'minlaydi.[1]

Psixologik xizmat ko'rsatish bosqichlari. Reabilitatsiya markazlarida ayollarning ruhiy sog'lig'ini tiklash quyidagi to'rtta asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Psixologik diagnostika: Bu dastlabki bosqich bo'lib, unda ayolning ruhiy holati, boshdan kechirgan travmasi darajasi va shaxsiy xususiyatlari maxsus testlar (masalan, Lyusher, Spilberg-Xanin) va suhbat orqali aniqlanadi. Maqsad — ayolning ruhiy tushkunlik (depressiya) yoki agressiya darajasini belgilashdir.

2. Psixologik profilaktika: Zo‘ravonlikning takrorlanishini oldini olishga qaratilgan tadbirlar majmuidir. Bunda ayolga "zo‘ravonlik doirasi" haqida ma‘lumot beriladi, xavfli vaziyatlarni oldindan sezish va ulardan chiqib ketish strategiyalari o‘rgatiladi.[5]

3. Psixologik korreksiya: Bu jarayonda ayolning buzilgan ruhiy funksiyalari va salbiy o‘z-o‘ziga baho berish tuyg‘usi ustida ishlanadi. Kognitiv-xulq-atvor terapiyasi orqali ayoldagi "aybdorlik" hissi yo‘qotiladi va o‘z haq-huquqlarini anglash, "yo‘q" deya olish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

4. Psixologik konsultatsiya: Ayolga hayotiy muammolarni mustaqil hal qilishda ko‘maklashish. Bu bosqichda mutaxassis ayol bilan birgalikda uning kelajakdagi hayot rejasi (ishga joylashish, farzandlar tarbiyasi, oilaviy munosabatlar) bo‘yicha aniq yechimlar izlaydi.[6]

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlikka uchragan ayollarga yordam ko‘rsatishda huquqiy choralarning o‘zi yetarli emas. Reabilitatsiya samaradorligini oshirish uchun:

- ❖ Psixologik yordamni faqat inqiroz davrida emas, balki uzoq muddatli (kamida 6 oy) monitoring asosida olib boorish talabi qoyilishi kerak;

- ❖ "Inson" markazlari qoshida ayollarni kasb-hunarga yo‘naltiruvchi maxsus ijtimoiy kovorking markazlarini ko‘paytirish lozim yoki mavjud markazlarga ayollarni bosh vaqtini hunar organishlari uchun komaklashish lozim.

Xulosa qilib aytganda, tizimli psixologik yordam va mustahkam huquqiy poydevor (PQ-175, PQ-5116) ayollarning nafaqat xavfsizligini, balki jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatidagi ruhiy barqarorligini ta‘minlashning kafolatidir. [4]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida" (O‘RQ-561, 02.09.2019).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, "Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" (PQ-175, 10.05.2024). Lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, "Zo‘rluk ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" (PQ-5116, 19.05.2021).

4. G.B. Shoumarov, I.O. Haydarov va boshqalar. Oila psixologiyasi: darslik. — Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2010. (Oilaviy nizolar va zo‘ravonlikning psixologik ildizlarini tushunish uchun asosiy manba).

5. Z.T. Nishonova. Psixologik maslahat: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2014. (Ayollarga psixologik konsultatsiya berish metodikasi bo‘yicha).

6. E.G. G‘oziyev. Umumiy psixologiya. — Toshkent, 2010. (Shaxsning ekstremal vaziyatlardagi ruhiy holatini tahlil qilish uchun).